INGLIZ AFORIZMLARINING SEMANTIK GURUHLARI

Abulova Zilola Azimovna

Buxoro davlat universiteti
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi dotsenti

Anotatsiya: Mazkur maqolada ingliz aforizmlarining semantik guruhlari hamda ularning til tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Frazeologik birliklar va aforizmlar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida yoritiladi. Aforizmlarning semantik xususiyatlari, ularning shakl va mazmun jihatdan tuzilishi, gradatsiya (darajalanish) hodisasi orqali ifodalanishi lingvistik nuqtayi nazardan asoslab beriladi. Shuningdek, morfologik, leksik-semantik va sintaktik vositalar yordamida ma’no kuchayishi yoki kamayishi jarayoni misollar asosida ko‘rsatib o‘tiladi.Ishda morfemali ko‘rsatkichlar (affiks, affiksoid, suffiks va prefikslar), takror va juft shakllar, sinonimiya, metaforizatsiya kabi vositalar orqali semantik gradatsiyaning yuzaga chiqishi tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy yondashuv amalga oshirilib, til birliklarining darajalanish xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari aforizmlar va frazeologik birliklarning semantik tasnifini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: aforizm, frazeologik birlik, semantik guruh, gradatsiya, morfologik vositalar, leksik-semantik ko‘rsatkichlar, affiks, affiksoid, sinonimiya, metaforizatsiya, darajalanish, qiyosiy tilshunoslik.

Bugungi kunda tilshunosligida tilda frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniy jihatdan o'rganishi til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi, chunki turg'un iboralar tilning boshqa lingvistik birliklariga qaraganda xalq hayoti bilan bog'liqdir. Ular ko'p asrlik hayotiy tajribalar, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an'ana va marosimlar asosida shakllangan. Shunday qilib, aqliy fazilatlar aniq seziladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tarkibida onomastik komponentlar mavjud bo'lganda, bu xususiyat yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Sababi, onomastik birliklar xalqning o'tmishi bilan bugungi hayotini bog'lovchi ko'prik bo'lib qolgan. Binobarin, turli tizimli tillardagi frazeologik birliklarni, ularning etimologiyasi, tuzilishi, semantikasini alohida o'rganish, tasnifini yaratish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.[1]

Dunyoda semantik jihatdan birham semantik jihatdan mos keluvchi tillar o‘xshamasligining sababi – turli xalqlarning madaniyati, urf yashash sharoitlari turlicha ekanligi bilan mazkur tillarni tarjima qilish hamda qiyoslab o‘rganishga imkoniyat beradi.

So'nggi yillar davomida aforizmlarga qiziqish sezilarli darajada oshdi, chunki ularning universalligi va semantik guruhlar tufayli aforizmlar davr ruhiga mos keladi. Ko'p sonli Monografiyalar mavjudligiga qaramay, nafaqat aforizmlarning mohiyatini tushunish, balki ularning hajmini aniqlash va tuzilishini tavsiflashda mehnat talab qiladi. Aforizmlar asosan to'g'ridan-to'g'ri xabarning maksimal konsentratsiyasiga va fikrni atrofdagi tinglovchilar yoki o'quvchilar tomonidan qabul qilinadigan kontekstga erishadi.

Ma’lumki, forma yasalish doirasi, an’anaga ko’ra, forma yasovchi affikslar va yordamchi so’zlar bilan chegaralanar edi. So’nggi yillarda so’zlarning takroriy va juft ko’rinishlari ham forma yasalishlari sifatida talqin etilmoqda. Shunday bo’lsa, forma yasalishi avvalo o’zining oddiydan murakkabga tuzilish belgisiga ko’ra quyidagicha darajalanishga ega bo’ladi: 0(nolü) - sintetik (affiks) - analitik (takror) - analitik (juft). Ushbu darajalanish zanjiriga uzvlarining semantic tabiati bo’yicha qaralsa, ularda lug’aviy ma’no chegarasidan (xususiylikdan) Grammatik ma’no (umumiylik tomon)ga bosqichli o’tib borilayotganligini ko’rish mumkin: juftlash (ota-ona) - takrorlash (tog’-tog’) - ko’makchi

[1] Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. Science and Education, 3(3), 713-718.

fe’lli analitik forma (ishlab yurmoq) - to’liqsiz fe’lli analitik forma (kitob edi) - affiksli forma (kitoblar) - nol forma (0) kabi.

Morfemali ko’rsatkichlar affikslar (prefikslar va suffikslar bilan) va affiksoidlar orqali namoyon bo’ladi. Àffiksoidlar tarkibida biror bir belgining katta yoki oliy, chegaraviy darajasini bildiruvchi prefiksoidlar farqlanadi: ko’p, yirik, o’ta,super, to’la va boshq., masalan, ko’p qavatli uy, yirik gabaritli yuk, o’ta mahfiy, supertanker, to’la o’lchovli va biror bir belgining yetarli bo’lmagan, katta bo’lmagan darajasini ko’rsatuvchi prefiksoidlar: kam-, yarim-; non-, im-, under, masalan, kamquvvat, kamqon, kamchiqim, yarimjon, yarimavtomat, yarimorol; nonmobile, immature, underdeveloped. Morfemali ko’rsatkichlar sifatida shuningdek kichraytiruvchi suffikslar namoyon bo’ladi:

-(à) loq-, -choq-, -cha-; -kin-, -let-, -te-, -ok-, -ule-, -ling- (qizaloq, qo’zichoq, buzoqcha;

- islet, boykin, animacule, kitchenette, hillok, catling, firstling), zaiflashgan ma’nosini beruvchi suffikslar -(i)sh-;

-ish (sarg’ish yuz, qizg’ish ufq; yellowish filter, greenish layer).

Morfemali ko’rsatkichlarga solishtirma va orttirma daraja prefikslarini ham kiritish mumkin: ba-; -(e)st (badavlat, baquvvat, basavlat, bag’oyat; biggest, smallest, greatest); serg’ayrat, ser-suv, ser-xosil, kam-xosil, alp-komat, farishta-sifat, mol-fahm, tovuq-kalla, dev-sifat, bo’y-dor, joziba-dor maftun-kor, be-xad, ba-g’oyat; ba-davlat, ba-savlat, boy-ota, boy-vuchcha, pul-dor, pul-siz, nomdor, nomsiz.

Ingliz tilida: supersoldier, supermarket/ supersonic, out-outfight, over- overcome, sub-due, sur-pass, ultra-violet. Gradatsiyani so’z qo’shish usuli yordamida namoyon etuvchi birliklar mavjud bo’lib, bunda komponentlardan biri belgining darajasiga ishora qiladi, masalan to’q ko’k, och sariq; whitish-pink, dark-blue, light-red va boshq. Semantik ma’nosiga ko’ra bu kabi leksemalar, ko’pincha, rang va tuslarni bildiradi. Morfemali ko’rsatkichlarga shuningdek takror yordamida hosil bo’lgan LBni kiritish mumkin, masalan asta-asta, tez-tez, uzunuzun; far far away, a long long time va boshqalar.

Morfologik birliklar (vositalar) chuqur va atroflicha o’rganila borilgan sari bu sathga oid bo’lgan graduonomiya ham yaqqol bilina boshlaydi. Masalan, À.Hojievning ko’makchi fe’llarga oid katta Monografiyai bu funksional yordamchilarning semantik tizimida boshlanish faza (boshla, kel, ket) - bajarilish yoki davomlilik fazasi (yot, tur yur, o’tir, bor, ber) - tugallikka yaqinlashish fazasi (qol, yoz) - to’liq bajarilish fazasi (bo’l, bit, bitir, chiq, yot, yubor, sol, tush) kabi tadrijiy bosqichlanishlar (darajalanishlar) bor ekanligini ko’rsatdi.

Morfologik tizimning qurilishida mustaqil so’zlar - oraliq guruh (modal, undov, taqlid) - yordamchi so’zlar, fe’l - funksional formalar - ot, mustaqil so’z - mustaqil so’z/yordamchi so’z - yordamchi so’z kabi atashdan ifodalashga yoki lug’aviy semantikadan morfologik ma’nolar tomon yuzaga kelgan tadrijiy (darajali) shakllanishlar katta ahamiyatga ega. So’z turkumlaridan son sof miqdoriy darajalanish semantikasiga asoslansa, sifat so’z turkumida "kamlik - me’yor - ortiqlik" andazasi asosida ish ko’ruvchi daraja kategoriyasi mavjud. Morfologik kategoriyalarning xususiy ma’nolariga ham darajalanishalr xos: (Gabriel Varden went his way towards London, thinking of a great many things, and most of all of flaming terms in which to relate his adventure, and so account satisfactorily to Mrs Varden for visiting the Maypole, despite certain solemn covenants between himself and that lady.

Thinking begets, not only thought, but drowsiness occasionally, and the more the locksmith thought, the more sleepy he became.

(Charles Dickens, Barnaby Rudge)

O'zbek tilida gradasiyaning ifodalshda kichaytirish ma'nosini ifodalashda -cha, -chan, -loq/-aloq,-chak,-chiq qo'shimchalarini qo'shilishi orqali hosil bo'lishini kuzatdik. -cha elementi ham jonli, ham jonsiz predmet nomiga qo'shilib, kichaytirish, erkalash, kamsitish ma'nolarini hosil qiladi: kitobcha, yetimcha, otincha, o'g'ilcha kabi. -cha ning ma'nodoshi bo'lgan -choq shaklining birinchidan, birikish qobiliyati ancha cheklangan, ikkinchidan esa

faqat jonli predmet nomiga birikadi: toychoq, qo'zichoq kabi. Demak, - cha leksemasining ayrim so'z bilan birikish qobiliyatini cheklaydi, lekin boshqa bir turdagi so'z bilan birikish qobiliyatini kuchaytiradi-asos shakl birikish qobiliyatida o'zgarish yasaydi. Ba'zan -cha shaklini olgan so'z kichiklik bildiruvchi jajji, kichkina, mayda kabi so'z bilan kengayishga ehtiyoj sezadi: kichik kitobcha, mayda taqsincha, jajji Salimcha kabi.

Kichaytirish ma'nosidagi -gina hamda erkalash ma'nosidagi -gina shaklining farqini uning morfologik shakl valentligidan ham bilsa bo'ladi.Chunonch, bolagina, qizgina, eplikkina, kichikkina so'zida -gina kichraytirish ma'nosini hosil qilib, uning miqdor ifodalovchi ayrim son bilan birikishini ta'minlaydi: ikki enlikkina, uch qizgina, tort bolagina. Ammo erkalash ottenkasi -gina shaklida bunday birikish cheklangan, o'zidan keyin egalik shaklining birida qo'llanilishiga hoslangan. Umuman, morfologik gradatsiyalar morfologik kategoriyalar va so’z turkumlarining munosabatlarini kuchli-kuchsiz oppozitsiyalarda tashkil etuvchi hodisa bo’lib, bunda oraliq uchinchilik muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek, morfologiyaning o’zi leksika bilan sintaksis o’rtasidagi oraliq uchinchidir. Bu holat, ko’rinishicha, morfologik graduonomiyaning leksik va sintaktik darajalanishlar bilan hamkorligiga asos bo’ladi: qirmizi (leksik) - qizilroq (morfologik) - haddan tashqari qizil (sintaktik) kabilar.

Leksik-semantik ko’rsatkichlar orasida ma’noni metaforizatsiyalash yordamida gradatsiyani ifodalovchi ko’rsatkichlarni alohida guruhga ajratish lozim, masalan, hissiyotlar to’foni, sevgi ummoni. Leksik-semantik ko’rsatkichlar tarkibida turli so’z turkumlariga mansub bo’lgan, ma’nosida graduallik semalari bo’lgan so’zlar bo’lishi mumkin: qahr (kuchli g’azab), a’lo (juda soz, juda yaxshi), bahaybat (juda katta),mitti (juda kichik), ancha, juda, bag’oyatda, sal; very, quite, rather, exceedingly.

Leksik-semantik ko’rsatkichlar sifatida kommunikativ metaforalar ham namoyon bo’ladi, ular lisoniy metaforalardan farqli ravishda tayyor holda aytilmaydi, balki nutq jarayonida (matnda) shakllanadi.

Lug’aviy darajalanish qatorlari graduonimlarning qaysi semantik turkumlarga (so’z turkumlariga) xosligi jihatdan farqlanadi va boshqa ma’noviy guruhlanishlarga (polisemiya, sinonimiya, antonimiya, gi ponimiya, partonimiya kabilarga) nisbatan alohida o’rinni egallaydi. Lug’aviy darajalanish aslida semantik, ya’ni muayyan semani darajalash orqali yangi so’zlar hosil qilish (bir - ikki - uch, iliq - issiq - qaynoq, boy - o’rtahol - kambag’al kabi) usulidir.

Leksik-semantik ko’rsatkich sifatida sinonimiya ham namoyon bo’ladi, u semalar takrorlanishi (semantik reduplikatsiya) hisobiga gradatsiyani hosil qiladi: "Take whatever you need," I yelled. Don't you always? I thought, my old anger and ecstasy rising up as unavoidably as a knee jerking when the doctor's hammer hits. (Jennifer Weiner, Best friends forever).

Bundan boshqa, uning Ànvarga uchrashmay namoyishkor chiqib ketishi, qandaydir yana bir ma’noni onglatqandek ham bo’lar edi. Ra’noning yuzidagi qayg’u belgilari yo’qolib, uning o’rnini g’azab va jazava alomatlari oldi. (Àbdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon.)

Keltirilgan misolda ikki yadroviy semaning takrorlanishini kuzatish mumkin: "belgining katta darajasi" gradual semasi va "g’azablanganlik" semasining birgalikda ular "quturish" va "jazava" sinonimik otlar semantikasida namoyon bo’ladi ("g’azablanishning eng yuqori darajasi". Keyingi misolda sinonimiya LB takror bilan uyg’unlashadi: 'What a funny, what a hillarious boy you are!' said Aunt Louisa. (W.Somerset Augham, Of human bondage);(naqadar ayanchli, naqadar dahshat) So’zlarning graduonomik qatorlarga tizilishi ma’lum bir belgi (asos, oppozitsiya belgisi) zaminida sodir bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vaganova, E.Yu. Aphorism as a Text Type in the Aspect of Intertextuality (Based on the Material of the German Language) [Text]: thesis ... candidate of philological

sciences / E.Yu. Vaganova. - Kaliningrad, 2002. - 261 p.
2. Korolkova, A.V. Russian Aphoristics in the Context of Phraseology [Text]: thesis ... doctor of philological sciences / A.V. Korolkova. - Smolensk, 2005. - 422 p.
3. Fedorenko N.T. Aphoristics [Text] / N.T. Fedorenko, L.I. Sokolskaya. - M .: Science, 1990. - 419 p.
4. Azimovna A.Z. SEMANTICS OF ENGLISH APHORISMS //DEVELOPMENT SCENARIOS AND ALTERNATIVES IN THE MODERN SOCIETY. – 2023. – P. 69.
5. Gross J. Oxford book of aphorisms / J. Gross. – L .: Oxford Paperbacks, 2002. – 394 p.
6. Litvin E.Yu. Paradoxes of Self-Identification: Aphorisms in the System of Authorial Means of Representation "Ego" (on the Example of O. Wilde's Novel) // Achievements of Modern Science. – 2015. – No. 1. – P. 65-67.